

Bajarilishi bir yarim yilga mo'ljallangan amaliy loyihalar mavzusi

“Texnika fanlari” yo‘nalishi

№	Amaliy loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
	Zilziladan oldin, zilzila vaqtida va zilziladan keyin amaliy harakat qilishga o‘rgatishga mo‘ljallangan ko‘chma mobil zilzila simulyatorini yaratish 	Tadqiqotning shakli: Amaliy. Ilmiy-tadqiqot natijalari: - Respublikaning seysmik faol hududlarida istiqomat qilib kelayotgan aholini zilziladan oldin, zilzila vaqtida va zilziladan keyin amaliy harakatlanishga tayyorlash tsenariylari, algoritmlari, amaliy mashg‘ulotlarni olib borish uslubiyoti, o‘quv-uslubiy materiallar to‘plami ishlab chiqiladi; - zilzilada harakatlanishga amaliy tayyorgarlikdan o‘tadigan aholining tayyorgarlik darajasini baholash hamda ularning monitoringini olib borish tizimi yo‘lga qo‘yiladi; - ko‘chma mobil zilzila simulyatorini yaratiladi; - aholining nisbatan tayyorgarligi past bo‘lgan seysmik faol hududlarda joylashgan aholi yashash maskanlariga joylarga chiqqan holda amaliy tayyorgarligi oshiriladi; - ko‘chma mobil simulyator yordamida, aholining barcha qatlamini, yetib borish qiyin bo‘lgan (tog‘li hududlar) hududlarda joylashgan aholi punktlarida fuqarolar tayyorgarligi oshiriladi; - ko‘chma mobil simulyator yordamida o‘rtacha kuchli zilzila kutilayotgan hududdagi 200-250 ming fuqaroni zilziladan oldin, zilzila vaqtida va zilziladan keyin harakat qilishga amaliy harakat qilishga o‘rgatiladi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish: Tadqiqot natijalari Toshkent viloyatining chekka aholi yashash maskanlarida sinovlardan o‘tkaziladi. Ilmiy natijalarni chop etish: Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi. Izoh: Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Favqulodda vaziyatlar vazirligining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.